Orol dengizi tabiati va ekologik holatini o’rganish bo’yicha ilmiy ekspeditsiya uyushtirildi

O’zR FA Seysmologiya instituti Kompleks regional geografik prognozlashtirish laboratoriyasi xodimlari Samarqand davlat universiteti geografiya va ekologiya fakulteti qoshidagi “Orolbo’yi tabiatini o’rganish” markazi yosh olimlari bilan birgalikda Orol dengizi tabiati va ekologik holatini o’rganish uchun hududga ilmiy ekspeditsiya uyushtirdi.



Ekspeditsiya davomida Orol dengizining qurigan tubidan ko’tarilayotgan chang, tuz va qumlarning ko’chishi, Orolbo’yida kechayotgan tabiiy geografik jarayonlar, cho’llanish hodisasini kuzatish ishlari olib borildi.

Ekspeditsiya ishtirokchilari ikkita marshrut bo’yicha izlanish olib bordi. Birinchi yo’nalish – hozirgi kunda Orol dengizining suv mavjud bo’lgan, qolgan hududi cho’l, chalacho’l va botqoqliklardan iborat g’arbiy qismida o’z ishini boshladi.





Tabiiy landshaftlardagi o’zgarish sezilarli darajada ko’zga tashlanadi. Tuproq qoplami, o’simlik va hayvonot olamida tadrijiy o’zgarishlar yuz bergani aniqlandi. Ustyurt chinklarining Orol dengizi bilan tutash qirg’oqlarida o’simlik qoplami qalinlashgani, yoki aksincha, chinklardan uzoqlashgan sari siyraklashib borgani kuzatildi. Chinklarda bir-birini takrorlamas tabiiy manzaralar hosil bo’lgan.

Ekspeditsiya davomida Orol dengizining g’arbiy qismida 12 ta punkt belgilanib, joylardan tuproq va o’simlik namunalari olindi.

Bundan tashqari, Orol dengizining sharqiy qismi, bundan 30-40 yil oldin suv chekingan Orolqum bo’lib, olimlar barxanlar va saksovulzorlarda o’z izlanishlarini olib bordi. Orol dengizi qurigan tubining katta qismi sharqiy hududiga to’g’ri kelgani uchun bu yerda 35 ta punkt belgilanib, namunalar olindi.

Tadqiqotchilar Orol dengizi atrofidagi 7 ta gidrometeorologik stantsiyalarda (Taxtako’pir, Chimboy, Taxiatosh, Nukus, Mo’ynoq, Qo’ng’irot) bo’lib, Orolbo’yi va Orol dengizining qurigan qismida kuzatilayotgan meteorologik jarayonlar bilan yaqindan tanishdi. Ekspeditsiya davomida tadqiqotchilar Orolbo’yi xalqaro innovatsiyalar markazida ham bo’lib, u yerda amalga oshirilayotgan ishlar va tajriba uchastkalarida olib borilayotgan tadqiqotlar bilan tanishdi. Tadqiqot doirasida Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti hamda Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy xodimlari va izlanuvchilar bilan uchrashuv o’tkazildi.



Shuningdek, ekspeditsiya Orol dengizi qurigan tubida ro’y berayotgan tabiiy geografik jarayonlar – Orolbo’yining hozirgi deltaci va dengizbo’yi geotizimlaridagi o’zgarishlar, dengizning qurigan tubi landshaftlari shakllanishi, tiklanishi va rivojlanishi, cho’llanish kabi geoekologik jarayonlar o’rgandi. Orol dengizining qurigan qismidan ko’tarilayotgan chang, tuz va qumlarning ko’chishini aniqlash va hozirgi zamonaviy texnologiyalar yordamida Orolbo’yi mintaqasi geoekologik xaritasini tuzish kabi ishlarni amalga oshirdi.

Shu yilning may oyida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo’yi xalqaro innovatsiya markazi bilan O’zR FA G’.O.Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti o’rtasida ilmiy hamkorlik memorandumi imzolangan edi.